

T.G. YADGAROV, R. QODIROV

KOMPUTER GRAFIKASI

DARSLIK



Kitob shu yerda ko'ssatilgan muddatdan
kechiktirilmagan holda topshirilishi shart

85. 7606
T.G. Yadgarov
Kompyuter
Grafikasi

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT MILLIY RAQS VA XOREOGRAFIYA OLIY MAKTABI

T.G.Yadgarov, R. Qodirov

KOMPUTER GRAFIKASI

*O'zbekiston respublikasi olyi va o'rta maxsus ta'lif vazirligi
tomonidan olyi o'quv yurtlari san'at soxasi yo'naliishi talabalari
uchun darslik sifatida tavsiya etilgan*



Toshkent -2017
"Navro'z" nashriyoti.

KBK 83(Узб)

O 57

UO'K: 118.02.8

T.G.Yadgarov, R. Qodirov Komputer grafikasi.
—Toshkent; «Navro‘z» nashriyoti, - 2017 y. 128 b.

Taqrizchilar:

- Zununova U.G. K.Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti “Informatika va menejment” kafedra dotsenti
- Tashkentbayev P.I.Toshkent Davlat milliy raqs va xoreografiya oliy maktabi “San’at nazariyasi va tarixi ” kafedrasи mudiri, san’atshunoslik fanlari nomzodi

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rtalik maxsus ta’lim vazirligining 2017 yil 24 avgustdagи № 603-sonli buyrug‘iga asosan nashr qilishga ruxsat berilgan.

Ro‘yxatga olish raqami 603-166.

© Toshkent Davlat milliy raqs va xoreografiya oliy maktabi 2017.
ISBN 978-9943-381-53-7

© "Navro‘z" nashriyoti.

KIRISH

Biz darslik yaratishga eng ilg‘or va eng sharaflı vazifa sifatida qarashimiz, yaxshi darslik yaratgan odamlarni boshimizga ko‘tarishimiz kerak

“Kompyuter grafikasi” fani xoreografiya oliy maktabi va sanatshunoslik yo‘nalishi talabalari uchun (5150200-San’atshunoslik (Xoreografiya bo‘yicha) o‘ta muhim ahamiyatga egadir.

Ushbu darslikning birinchi bobida kompyuter grafikasi fanining maqsadi va vazifalari, grafik ma'lumotlarni qayta ishlash usullari, kompyuter grafikasining turlari boyicha ma'lumotlar keltirilgan. Rastrli va vektorli grafika tashkil qilish elementlari bat afsil yoritib berilgan. Bundan tashqari fractal grafika va uch o‘lchamli grafikalar boyicha ham qisqacha ma'lumotlar berilgan. Grafik ma'lumotlar formati, grafik ma'lumotlarni internet sahifalarga qo‘yishda qaysi formatdan foydalanish, kompyuter grafikasida 8 bitli rang tushunchasi va unda necha xil rang hosil qilish mumkinligi, rang modellari nima va qanday rang formatlari mayjudligi, ranglar modeli formatiga qanday modellar kirishi boyicha tushunchalar keltirilgan.

Ikkkinchi bobda grafik muharrirning asosiy vazifasi, qatlam tushunchasi, foydalanuvchi interfeysi qanday elementlardan tashkil topganligi, yangi fayl tashkil etish qanday amalga oshirilishi, mayjud fayllarni ochish qanday amalga oshirilishi, fayllarni diskga saqlash qanday bajarish usullari tushuntirib otilgan.

Tasvirning kerakli qismini ajratib olish instrumentlaridan foydalanish, tiklovchi mo‘yqalamalarda ishlash konikmalar, shtamplovchi instrumentlar va ulardan foydalanish algoritmi, o‘chiruvchi instrumentlar bilan ishlash vazifalari boyicha ma'lumotlar yoritilgan.

Shu bob oxirida xoreografiya olzymaktabi va sanatshunoslik yo‘nalishi talabalari uchun Adobe Photoshop grafik muharriri boyicha talabalari kompyuter garafikasida ishlashda amaliy konikmalar hosil qilishi uchun ajratish instrumentlari bilan ishlashni o‘rganish, pardozlash ko‘zoynakni instrumentlari yordamida tasvirdagi deffektlarni

to‘g‘rilashni o‘rganish, “Adobe PhotoShop” grafik muharririda matnlar bilan ishlashni o‘rgatish, tasvirlarni ramka bilan bezashni o‘rganish, effektlar bilan ishlashni o‘rganish, 5 ta rasmdan iborat fotokollaj yaratish boyicha amaliy mashgulotlar toplami kiritilgan.

Uchinchchi bobda vektorli grafikaning asosini nima tashkil topishi, elementar chiziqning asosiy tashkil etuvchilar, Corel Draw amaliy paketining tarkibiy qismlari, integratsiyalashganlik tushinchasi, CorelDraw obyektga mo‘ljallanganlik tushunchalari keltirilgan.

CorelDraw dasturi foydalanuvchi interfeysi elementlari, CorelDraw dasturining grafik obyekt kategoriyalari, chiziqlar kategoriyasi o‘z ichiga qanday obyektlar sinfini olishi tushunchlari berilgan. Shu bobda «Размерная линия» instrumenti bilan ishlash, atriburlar panelida qanday tugmalar joylashgan va ular qanday vazifalarni bajarishi, egri chiziqlarning turlari, «Свободная форма» instrumenti yordamida chizish qanday amalga oshirilishi, «Свободная форма» instrumentining boshqarish paneli qanday elementlardan tashkil topishi, «Безъ» instrumenti yordamida egri chiziq hosil qilish algoritmi, sinish nuqtasi va silliqlangan tugun nuqtalar hosil qilish, badiiy-chiziqchizish instrumenti vazifasi,

«Супер линия» (Artistic Media) instrumentining atributlar paneli, «Супер линия» (Artistic Media) instrumenti ishlash rejimlari boyicha malumotlar berilgan.

CorelDraw amaliy dasturida matnli obyektlar sinfi, oddiy matnlar maydoni sinfida matnlar hajmi necha belgi va necha absatsdan iboratligi, oddiy matnlar tashkil etish va ularni tahrirlash, o‘zaro bog‘langan matnli maydonlar zanjirini yaratish, shaklli matnlar yaratish turlari yoritilgan.

Uchunchi bob oxirida talaba bilimini mustahkamlash uchun CorelDraw dasturida badiiy chiziqlar yordamida obyektlarga effekt berish, obyektlar ustida amallar bajarishni, obyektlardan nusxa olish va qo‘yiishni, obyekt kontur chiziqlari bilan ishlashni o‘rganish. CorelDraw badiiy matnlar tashkil etish, tahrirlash va effektlar berishni o‘rganish. Corel Draw dasturida chiziqlar ustida amallar bajarish orqali tasvirlar yaratishni o‘rganish boyicha amaliy mashgulotlar toplami keltirilgan.

1.BOB. KOMPYUTER GRAFIKASI FANINING ASOSIY TUSHUNCHLARI VA VAZIFALARI.

1.1 Kompyuter grafikasi fanining asosiy maqsad va vazifalari

Berilgan ma’lumotlarni grafik ko‘rinishda tasvirlash 50-yillarning o‘rtalarida katta EHM (Electron Hisoblash Mashinasi)larda ilmiy va harbiy sohalarda qo‘llana boshlangan. Hozirda ma’lumotlarni grafik usulda tasvirlash shaxsiy kompyuterlarning ajralmas qismi bo‘lib qoldi.

Ma’lumki kompyuterlarning asosiy vazifasi – ma’lumotlarni qayta ishlashdan iborat. Bunda grafik ko‘rinishdagi ma’lumotlarni qayta ishlash alohida o‘rin tutadi. Grafik ma’lumotlarni qayta ishlashning uch yo‘nalishi mavjud:

- kompyuter grafikasi;
- tasvirlarni qayta ishlash;
- tasvirlarni hosil qilish (raspoznovaniye izobrajeniya).

Kompyuter grafikasi – bu informatikaning asosiy bo‘limlaridan biri bo‘lib, u tasvirlarni hosil qilish, qayta ishlash va ularni saqlash usul va usublarini o‘rganadi. U inson ko‘rish qobiliyati orqali qabul qila oladigan barcha turdag'i va ko‘rinishdagi tasvirlarni kompyuter xotirasida tasvirlashni o‘z ichiga oladi.

Kompyuter grafikasining asosiy vazifasi – tasvirlarni hosil qilishdan (vizualizatsiya) iborat. Tasvirlarni hosil qilishning ko‘plab usul va algoritmlari mavjud. Tasvirlar hosil qilish hozirda inson faoliyatining ko‘plab sohalarida keng ko‘lamda qo‘llanilmoqda. Masalan, meditsinada kompyuter tomografiyasi orqali inson ichki a’zolari tasvirlari hosil qilinadi.

Kompyuter grafikasi tasvirlarni hosil qilish usullariga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi:

- Rastrli (nuqtali) grafika;
- Vektorli grafika;
- Fraktal grafika.
- Uch o‘lchovli (3D) grafika;
- Kompyuter grafikasi va animatsiy.

Bu turli grafikalarning har birini o‘ziga hos afzalliklari va kamchiliklari mavjud. Shuning uchun tasvirlarni qayta ishlashda tasvir

xossalardan kelib chiqqan holda grafik turlarini tanlash kerak. Masalan, rasm ko'rinishdagi tasvirlarni qayta ishlashda rastrli grafikadan foydalanish maqsadga muvofiq.

Rastrli grafika rastrli tasvirlar yaratish, qayta ishlash va ularni saqlash usullarini o'rganuvchi kompyuter grafikasining bir bo'limi hisoblanadi.

Rastr deb - bir xil o'lchamga ega bo'lgan nuqtalar to'plamiga aytildi. Bu nuqtalarning har biri ko'rsatilgan rangga bo'yاليsh xossasiga ega bo'lib, ular piksellar deb ataladi.

Rastrli tasvirlar deb – bir xil o'lchamga va bir xil yacheykalarga ega bo'lgan piksellar to'plami orqali tasvirlangan tekis geometrik shakllarga aytildi. Bu shakllarga u yoki bu usulda rang beriladi va bu ranglar fiksirlangan razryadli sonlar bilan kodlashtiriladi. Kompyuter xotirasida rastrli tasvirlarning nuqtalari rangi haqidagi ma'lumotlar biror bir usul yordamida tartiblangan massiv ko'rinishida saqlanadi.

Rastrli grafika – bu nuqtalar to'plamiga asoslangan grafika bo'lib, uning asosiy elementi nuqta hisoblanadi. Shuning uchun bu grafikada har qanday tasvir nuqtalar yordamida tashkil qilinadi. Boshqacha qilib aytganda rastrli grafika asosini rangi ko'rsatiluvchi piksel (nuqta) tashkil qiladi. Bu piksellar qabul qilishi mumkin bo'lgan ranglar diapozoni – ranglar palitrasи (guruxi) orqali aniqlanadi. Masalan, oq-qora tasvirlar uchun palitradada ikki xil rang, ya'ni oq va qora ranglar bo'ladi. Rangli tasvirlar uchun esa palitradada 16, 256, 65536 va 16777216 xil ranglar bo'lishi mumkin.

Rastrli grafikada tasvirlarning sifati bir dyumdagи nuqtalar soniga bog'liq bo'ladi. Mumkin bo'lgan nuqtalar soni (razresheniye) deganda ma'lum o'lchamli to'g'ri to'rtburchak shaklidagi to'rga bog'langan nuqtalar soni tushiniladi. Kompyuterda esa monitor ekranning bo'yi va enining piksellar bilan berilgan o'lchami hisoblanadi. Kompyuter monitorida mumkin bo'lgan nuqtalar soni qancha ko'p bo'lsa monitor sifatlari hisoblanadi. Hozirgi sifatlari monitorlarining mumkin bo'lgan nuqtalar soni 640x480, 800x600, 1024x768, 1280x1024, 1600x1200, 1600x1280, 1920x1200, 1920x1600 gacha va undan ortiq bo'lishi mumkin. Bunda lyuminaforming ikki qo'shni nuqtasi orasidagi farq 0,22mm–0,25mm gacha bo'ladi. Mumkin bo'lgan nuqtalar sonining o'lchov birligi dpi (bir dyumdagи nuqtalar soni – dots per inch) yoki

kompyuter ekrani uchun ppi (bir dyumdagи piksellar - pixel per inch) hisoblanadi.

Nuqtali tasvirlarni ekranga yoki qog'ozga chiqarish jarayoni juda oson, chunki ekranda har bir pikselga mos keluvchi har xil rangda tovlanuvchi lyuminafor zarralar uchligi mavjud. Printerda esa har bir nuqtaga rangli siyoh yoki toner tomchisi zarralari mos keladi.

Nuqtali tasvirlarning asosiy kamchiligi ularning fiksirlangan o'lchamga ega bo'lganligi, ichki strukturaga ega bo'lmасligi va xotiradan ko'p joy egalashidir.

Fiksirlangan o'lchamga ega bo'lganligi – tasvirlarning o'lchamini kattalashtirish yoki kichiklashtirishda tasvir ko'rinishini buzilishiga olib keladi. Bunga sabab tasvir o'lchami kattalashtirilganda nuqtalar orasidagi masofa ham kattalashadi. Agar tasvir o'lchami kichiklashtirilsa undagi nuqtalarning aniqligi (rezkosti) va yorug'ligi (yarkosti) o'zgarishi hisobiga tasvir sifati yomonlashadi.

Ichki strukturaga ega bo'lmасligi ularni tahrirlashda qiyinchilik tug'diradi. Rastrli grafikada tasvirlar o'lchamini o'zgartirishda uning sifati yomonlashadi.

Vektorli grafika – bu vektorli tasvirlar yaratish, qayta ishlash va ularni saqlash usullarini o'rganuvchi kompyuter grafikasining bir bo'limi hisoblanadi.

Tugun nuqtalar deb ataluvchi ikki nuqta bilan chegaralangan chiziq elementar chiziq deb ataladi va bu elementar chiziq vektorli grafikaning asosiy elementi bo'lib xizmat qiladi. Elementar chiziqlar ham boshqa obyektlar kabi o'z xossalariiga ega bo'ladi, ya'ni:

- chiziq ko'rinishi (to'g'ri chiziq, egri chiziq);
- chiziq qalinligi (ingichka va yo'g'on chiziq);
- chiziq rangi;
- chiziq turi (uzlucksiz va uzlukli chiziq) va boshkalar.

Vektorli grafikada har bir obyekt elementar chiziqlar yordamida hosil qilinadi. Masalan, to'g'ri to'rtburchak 4 ta elementar chiziqlini birlashtirish asosida hosil qilinadi.

Vektorli tasvirlar deb – tuzilishi jihatidan murakkabroq bo'lgan va har xil ko'rinishga ega bo'lgan geometrik obyektlar to'plamiga aytildi. Bunday obyektlarga misol tariqasida to'g'ri to'rtburchaklarni, aylanalarni, ellipslarni, ko'p burchaklarni, kesmalarni va chiziqlarni

keltirish mumkin. Vektorli grafikaning xarakterli xususiyatlariidan biri undagi har bir obyekt uchun ularni tashqi ko'rinishlarini o'zgartirish imkonini beradigan boshqarish parametrlari mayjud. Masalan, ayana uchun boshqarish parametri sifatida ayana diametri, rangi, turi, chiziq qalinligi va ichki sohasi rangi kabilarni olish mumkin. Nuqtali tasvirlardan farqli ravishda vektorli tasvirlar ihtiyyoriy ichki strukturaga ega bo'ishi mumkin. Vektorli tasvirlarni ichki strukturasini rassom yoki dizayner tomonidan vektorli tasvir chizayotganida aniqlanadi. Vektorli tasvirlarni xotiradan joy egalashi, ya'ni o'lchami nuqtali tasvirlar o'lchamiga qaraganda ancha kichik bo'ladi. Bundan tashqari vektorli tasvirlarni nuqtali tasvirlarga aylantirish foydalanuvchi ishtirokisiz, amaliy dastur tomonidan amalga oshiriladi. Lekin nuqtali tasvirlarni vektorli tasvirga aylantirish foydalanuvchidan katta mahorat talab qiladi. Fraktal grafika – bu matematik formulalarga asoslangan grafika bo'lib, uning asosiy elementi matematik formulalar hisoblanadi. Shuning uchun kompyuter xotirasida tasvirlar emas, balki ularning formulalari saqlanadi. Bu grafika yordamida ham oddiy va murakkab strukturali tasvirlar yaratish mumkin.

Uch o'lchovli (3D, 3 Dimensions) grafika – bu kompyuter grafikasining bir bo'limi bo'lib, hajmlni obyektlar tasvirini yaratishning usul va vositalarini o'rGANADI. Bu grafika arxitektura, kinomatografiya, televiziyasi, kompyuter o'yinlari va boshqa shunga o'shash sohalarga tegishli tasvirlarni yaratishda qo'llanadi. Bundan tashqari ilmiy berilganlarni uch o'lchovli vektorli tekis piksellar tadqiqotlarda va samoatda ham qo'llanadi.

Uch o'lchovli grafikada maxsus dasturlar yordamida uch o'lchovli fazoviy jismlarning geometrik proyeksiyalarini kompyuter ekranida tasvirlanadi.

Tekislikda (kompyuter ekranida) uch o'lchovli tasvir hosil qilish uchun quyidagi ishlar bajariladi:

1. Modellasshtirish – fazoviy obekning uch o'lchovli matematik modelini yaratish.
2. Renderlash – tanlangan fizik modelga mos proyeksiya yaratish;
3. Hosil qilingan tasvimi kompyuter ekraniga yoki bosmaga chiqarish.

Biroq, hozirda 3D-display va 3D-printerlarning paydo bo'lishi Max, Maya, Lightwave 3D, SoftImage XSI, Sidefx Houdini, Maxon Cinema 4D, Rhinoceros 3D, modo, Nevercenter Silo ili Zbrush kabি natijasida uch o'lchovli grafika yaratishda proyeksiyalash jarayoni shart

bu "Inuy qolayapti.
Modellasshtirishning virtual fazosi o'z ichiga bir necha obyektlarni nuqtali, ya'ni:

- Geometriya (texnik model, masalan, bino);
 - Materiallar (obyekt xossalari haqidagi ma'lumotlar. Masalan, levor rangi va deraza oynasining aks ettirish darajasi);
 - Yorug'lik manbai (yorug'lik spektrlarini, quvvatini, yo'nalishini milmatsiyada qo'llanadi);
 - Qo'shimcha effektlar (atmosfera hodisalarini imitatsiya qiluvchi obyektlar: tumandagi yorug'lik, bulut, o't kabilat).
- Uch o'lchovli modellasshtirishning asosiy yazifikasi – bu virtual fazo obyektlarini taysiflash, ularni tasvir talablariga mos ravishda geometrik joyta ifodalashlar yordamida virtual fazoga joylashtirishdan iborat.

Renderlash – matematik fazoviy modelni rastri tasvirga aylantirish. Masalan, film yaratishda suratga olingan tasvirlar ketma-ket kadrlarga joylashtirilishi renderlash deyiladi. Kompyuter ekranida tasvirlar har biri uch xil rangga (qizil, ko'k va yashil) bo'yalish xossasiga ega bo'lgan piksellar matritsasi orqali tasvirlanadi. Demak, renderlash deganda berilganlarni uch o'lchovli vektorli struktursini tekis piksellar matritsasiga asklantirish tushiniladi.

Renderlashing bir necha texnologiyalari mayjud. Masalan:

- Z-bufer, bu texnologiya v OpenGL va DirectX10 da ishlataladi;
- Skanlayn (scanline) texnologiyasi;
- Reytreysing texnologiyasi.

Hozirda juda ko'plab renderlash tizimlari mayjud bo'lib, ulardan eng taniqlilar PhotoRealistic RenderMan (PRMan), Mental Ray, V-Ray, FinalRender kabilarni keltirish mumkin. Uch o'lchovli grafika yaratuvchi, ya'ni obyektlarni virtual fazoda (borliqda) aks ettirishga mo'jallangan amaliy dasturlar juda xilma xildir. Oxirgi yillarda bu sohadada liderlik qilayotgan dasturlar sifatida 3ds Max, Maya, Lightwave 3D, SoftImage XSI, Sidefx Houdini, Maxon Cinema 4D, Rhinoceros 3D, modo, Nevercenter Silo ili Zbrush kabи

amaliy dasturlar paketlarini keltirish mumkin.

Kompyuter grafikasi va animatsiya – televideniya va kino texnologiyalari sohalarida ko‘proq qo‘llaniladi.

Kompyuter grafikasi foydalanuvchilar uchun oddiy bir instrument bo‘lib xizmat qilsada, lekin uning strukturasi va uslublari fundamental va amaliy fanlar yutuqlariga asoslanadi. Shuning uchun kompyuter grafikasi informatika va kompyuter texnikasining eng tez rivojlanayotgan sohalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

1.2. Kompyuter grafikasida formatlar tushunchasi Ranglar va rang formatlari

Kompyuter grafikasi tasvirlarning disklarda saqlashning bir necha usullariga ega bo‘lib, har bir usulning o‘ziga xos xarakterli tomonlari mavjud. Bu usullar kompyuter grafikasining amaliy dasturlarida tasvirlarni saqlash uchun qo‘llaniladi. Kompyuter grafikasida grafik fayl formati deb grafik tasvirlarni disklarda saqlash usuliga aytildi va bu saqlash usuli faylning kengaytma nomi bilan aniqlanadi. Kompyuter grafikasida grafik fayllarni saqlash uchun quyidagi grafik formatlar ishlataladi:

1. TIFF (Tagged Image File Format). Bu format rastrli tasvirlarni saqlashda ishlataladi va bu format ostida diskga saqlangan grafik fayllar kengaytmasi .tif ko‘rinishda bo‘ladi. Bu grafik format keng tarqalgan grafik formatlar qatoriga kirib, unda monoxrom ko‘rinishdagi turli oq-qora tasvirlardan tortib, to 32 razryadli rangli tasvirlargacha bo‘lgan tasvirlar sifatli ko‘rinishlarda disklarda saqlanadi.

2. PSD (PhotoShop Document). Bu format Adobe Photoshop amaliy dasturi formati bo‘lib, rastrli tasvirlarni saqlashning eng yaxshi formatlaridan biri hisoblanadi. Bunda grafik tasvir ranglari bilan birga tasvirni yaratilish jarayonidagi parametrlar, masalan, ranglar kanali, qatlamlar, yorug‘lik darajasi kabi tasvir parametrlari ham saqlanadi. Format tasvir har xil ranglar modellarining 48 razryadli kodlashtirishiga ega. PSD format ostida saqlangan grafik fayllar .psd kengaytmaga ega bo‘ladi. Bu formatning asosiy kamchiligi ma’lumotlarni effektiv siqish algoritmi mavjud emasligi. Shuning uchun bu formatda saqlangan grafik fayllar diskdan ko‘p joy oladi.

3. JPEG (Joint Photographic Experts Group). Bu format ham rastrli

tasvirlarni saqlashda ishlataligan format bo‘lib, .jpg fayl kengaytmasiga ega. Format faylni siqish darajasi va fayl sifat darajasi orasida munosabatni boshqarish xususiyatiga ega. JPEG formatining fayllarni siqish algoritmi fayldagi ortiqcha ma’lumotlarni o‘chirishga asoslangan. Shuning uchun bu format ostida saqlangan fayllar ko‘proq elektron nashlarda ishlataladi.

4. GIF (Graphics Interchange Format). Bu format 1987 yili standartlashtirilgan bo‘lib, grafik tasvirlarni 256 ta rang bilan siqish orali disklarda saqlaydi. Siqish darajasi yukori bo‘lgani uchun format internet tarmoklarida keng qo‘llaniladi. Bu formatda saqlangan fayllarning kengaytmasi .gif bo‘ladi.

5. PNG (Portable Network Graphics) formati 1995 yil ishlab chiqilgan bo‘lib, grafik ma’lumotlarni Internet sahifalarida saqlashda ishlataladi. Bu format 3 xil turli oq-qora tasvirlarni, rangli 8 bitli va rangli 24 bitli tasvirlarni disklarda saqlay oladi. Ma’lumotlarni siqish algoritmi ranglarning 254 darajali alfa kanallarini o‘z ichiga olgani uchun tasvirning asl sifatini yo‘qotmaydi. Fayl kengaytmasi .png.

6. WMF (Windows MetaFile) formati Windows operatsion tizimida vektorli tasvirlarni saqlashda ishlataladi. Bu formatda saqlangan tasvir faylning kengaytmasi .wmf bo‘lib, u Windows operatsion tizimining barcha ilova dasturlarida qo‘llana oladi.

7. PDF (Portable Document Format) formati Adobe firmasi tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, matnli fayllarni saqlashga mo‘ljallangan. Bu formatda grafik tasvirlarni ham saqlash mumkin. Bundan tashqari formatning asosiy xususiyatlaridan biri apparat qismlarga bog‘liq emasligi, ya’ni bu formatli ma’lumotlarni ihtiyyoriy chiqarish qurilmalarida bosmaga chiqarsa sifatini o‘zgartirmaydi. Fayl kengaytmasi .pdf. Fallarni siqish algoritmi tasvirning oxirgi natijaviy sifatini saqlashga mo‘ljallanganligi uchun bu formatda saqlangan fayllar sifati yuqori darajada bo‘ladi.

Kompyuter grafikasining amaliy dasturlarining asosiy xususiyatlaridan biri shuki, ularda turli-tuman ranglari bilan bo‘yalgan tasvirlar yaratish imkoniyati mavjud. Tasvir kompyuter xotirasida saqlanganda uning ranglari biror bir usul yordamida kodlashtiriladi. Mumkin bo‘lgan ranglar hajmi ranglarni kodlashtirish uchun necha bit ketganligi bilan aniqlanadi. Masalan, oq-qora tasvirlarni kodlashtirish

uchun 2 bit kifoya, shuning uchun ular 2 bitli rang deb ataladi. 2 bitli ranglarda ranglar hajmi 256 xil rangdan iborat. 16 bitli (yoki 2 baytli) ranglar 65536 tagacha turli xil ranglarni tasvirlay oladi. 24 bitli ranglar esa 16,7 mln ranglarni aniqlaydi.

Kompyuter grafikasida rang formati degan tushuncha mavjud bo'lib, u kompyuterda rangli tasvirlar tashkil etish uchun ishlataladigan ranglarni kodlashtirish usullarini aniqlaydi.


1.3 Rang modellari

Kompyuter grafikasida rang juda muxim – ko'zatuva taassurotni kuchaytirish va tasvirni axborotga boyitish rolini o'ynaydi. Biz ko'rayotgan yoritilgan buyumdan qaytgan yoruq'lik ko'z qorachiqli orqali ko'zimizga o'tadi va ko'z ichidagi asab xujayralarini qo'zq'atadi. Bu hujayralar asab tolalari orqali miya bilan boq'langanligi tufayli ko'z yoruq'ligi miyaga o'tadi va ongimizda buyumni ko'rish tuyq'usi paydo bo'ladi. Biz buyumni ko'ramiz. Atrof muhitni bunday ko'rish qobiliyat ko'rish deb, ko'rish a'zosi esa ko'z deb ataladi.

Kompyuter grafikasida 4 xil rang formatlari mavjud:

1. *Rang modeli formati*. Bu formatda tasvirdagi har bir rang qiyatlari ko'rsatilgan holda tashkil etuvchi ranglarga ajraladi. Bu formatda eng ko'p tarqalgani *RGB*, *HSB* va *SMUK* rang modellarini hisoblanadi:


- *RGB* rang modeli tashkil etuvchi ranglari qizil, yashil va ko'k (lavask) ranglarni oladi. CMU modelida ranglar oq rangdan addiativ ranglardan iborat. Bunda ranglar shu 3 rangni o'zaro qo'shish orqali ranglarni ayrish orqali hosil kilinadi. *CMUK* modeli rasrlri, vektorli va hosil qilinadi. Bu modeldagi tashkil etuvchi ranglarni odatda addiativ matnli obyektlarni bosmaga chiqarishda ishlataladi. ranglar deb ataladi. Ularning har biri 8 bit bilan kodlanadi va 8 bitli ranglar hisoblanadi. Bu 8 bitli ranglar orqali 16,7 mln. ranglar hosil qilish mumkin. *RGB* modeli rasrlri, vektorli va matnli obyektlarni monitor va skaner orqali tasvirlashda ishlataladi.




RGB modeli.

* *HSB* rang modelidagi ranglar inson qabul qila oladigan ranglarga bo'lgan qilib yaratilgan. Undagi har bir rang uchta – «rang tovlanishi» (hue-оттенок), «rang to'yinganligi» (Saturation-насыщенность) va «rang ochiqligi» (Brigfitness-яркость) kabi tashkil etuvchi elementlardan tashkil topgan. *HSB* rang modeli Mansella ranglar doirasida tuzilgan. N-yoruglik chastotasi bo'lib, u 0 dan 360 gradusgacha bo'lgan qiymat qabul qiladi. V – yorug'likdagi oq rangni darajasi bo'lgan qiymat qabul qiladi. S-konus radiusini aniqlaydi.


CMU yoki *CMUK* ranglar modeli o'z ichiga Suan (havo rang), Magenta (fuksin), Yellow (sariq) va *CMUK*da qo'shimcha "Keu" (qora) ranglarni oladi. *CMU* modelida ranglar oq rangdan addiativ ranglarni ayrish orqali hosil kilinadi. *CMUK* modeli rasrlri, vektorli va hosil qilinadi. Bu modeldagi tashkil etuvchi ranglarni odatda addiativ matnli obyektlarni bosmaga chiqarishda ishlataladi.





CMYK modeli

Chunki model ranglari bosmaga chiqarish qurilmasining ranglariga mos keladi. Shuning uchun bosmaxona ishlardida ko'proq foydalilanildi.



2. *Ranglarni moslashtirish tizimi formati.* Ranglarni moslashtirish tizimi formati deganda ranglar namunasi saqlanuvchi ranglar kutubxonasi tushiniladi. Bu kutubxonadagi ranglar ma'lum nomlar bilan yuritiladi va ular tizimlashtirilgan bo'ladi. Agar ba'zi ranglar modelida kerakli rang shu rangning son qiymatlar orqali aniqlansa, bu modelda kerakli rang ranglar kutubxonasida namunalar orqali aniqlanadi.

3. *Jadvalli format.* Bu formatda ranglar bir necha ranglarni o'z ichiga olgan rang namunalaridan tashkil topgan jadvallar orqali beriladi. Jadvallagi rang namunalari soni 256 tadan oshmaydi. Tasvirlarda ranglarni jadval usulida berilishi quyidagicha amalga oshadi. Tasvirdagi har bir rang tovlanmasi (цветовой оттенок) jadvaldagi o'ziga yaqin bo'lgan rang namunasi bilan almashtiladi. Tasvirlarni bunday qayta ishlash natijasida tasvirning sifati biroz yomonlashsa ham, lekin tasvir faylining hajmi ancha kichiklashadi. Bu formatdan badiiy effektlar hosil qilishda va elektron nashrlar tayyorlashda ishlataladi. CorelDraw

dosurida 3 xil turdag'i oq-qora (Black and White), kul rang tovlanuvchi (Grayscale) va rangli tovlanuvchi ranglar palitrasasi (Palettes) jadvalli namunalar ishlataladi.

4. *Dupleks formati.* Bu format boshqa rang formatlarining kombinatsiyasi orqali hosil qilingan format hisoblanadi. Format rastrli tasvirlar tashkil qilishda ishlataladi.

Nazorat savollari

1. Grafik ma'lumotlarni qayta ishlashning nechta yo'nalishi mavjud?
2. Rastrli grafika haqida nimalarni bilasiz?
3. Vektorli grafika qanday grafika?
4. Elementar chiziq qanday xossalarga ega?
5. Fraktal grafikaning asosiy elementi nima?
6. 3D grafika qanday grafika?
7. Grafik ma'lumotlar formati deganda nima tushiniladi?
8. Qanday grafik ma'lumotlar formatlarini bilasiz?
9. Grafik ma'lumotlarni Internet sahifalarga qo'yishda qaysi formatdan foydalilanilgan ma'qul?
10. Kompyuter grafikasida 8 bitli rang deganda nimani tushiniasiz va unda necha xil rang hosil qilish mumkin?
11. Ranglar formati nima va qanday rang formatlarini bilasiz.
12. Ranglar modeli formatiga qanday modellar kiradi?

2-BOB. ADOBE PHOTOSHOP GRAFIK MUHARRIRIDA ISHLASH.

2.1 Adobe photoshop dasturi bo'yicha boshlang'ich ma'lumotlar

Adobe PhotoShop dasturi Adobe Systems firmasi tomonidan yaratilgan ko'p funksiyali grafik muharrir bo'lib, uning yordamida asosan rastrli tasvirlar hosil qilinadi va qayta ishlanadi.

Adobe PhotoShop dasturining birinchi varianti (versiyasi) 1987 yili Michigan universiteti talabasi Tomas Noll tomonidan yaratilgan. U bu dasturni "Display" deb nomlagan. 1988 yili uni "ImagePro" deb qayta nomladi. 1988 yilning sentabr oyi sanasida Adobe Systems firmasi bu dasturni mualliflik maqomini Tomas Nollda qoldirish sharti bilan sotib oladi va 1989 yili unga "Photoshop" nomini beradi. 1990 yili Photoshop 1.0 versiyasi ishlab chiqildi. 2003 yil oktabr oyida bu dastur Adobe Systems firmasining "Creative Suite" amaliy dasturlar paketi tarkibiga kiritilib, Photoshop CS nomi bilan nomlana boshladи. Shundan beri Photoshop CS3, Photoshop CS4, Photoshop CS5 versiyalari va 1912 yilning may oyida Photoshop CS6 versiyasi ishlab chiqildi.

Adobe Systems kompaniyasi ruxsati bilan AQShning Koliforniya shtati "Mountain-Veiw" shahridagi kompyuter tarixi muzeyi o'zining saytiga Photoshop grafik muharririning birinchi (1.0.1) versiyasi kodini joylashtirgan. U arxiv ko'rinishida bo'lib, 179 ta fayldan yoki 128 ming ta dastur qatoridan tashkil etgan. Uning 2/3 qismi Paskal dasturlash tilida yozilgan.

Adobe PhotoShop dasturi rastrli tasvirlarni qayta ishlashga mo'ljallangan grafik muharrir dasturlar ichida "de-fakto" standart maqomiga ega bo'lgan dastur hisoblanadi. Bu dasturning boshqa dasturlardan asosiy ustunligi unda tasvirlarni qayta ishlash qatlamlari prinsipiiga asoslanganligi va qo'shimcha dasturiy modular (Plug-in) tizimini qo'shish imkoniyati mayjudlidigadir. Adobe Photoshop tasvir tahrir qiluvchisi yordamida fotosuratlarga qo'shimcha o'zgartirishlar kiritish, fotosuratdagi dog'larni o'chirish va eski rasmlarni qayta ishlash va tiklash, rasmlarga matn kiritish, qo'shimcha maxsus effektlar bilan boyitish, bir fotosuratdagi elementlarni o'zgartirish, almashtirish imkonimurakkab amallar bajarishga mo'ljallangan modular yaratish bilan

Qatlamlar yaratadi. Qatlamlar Adobe PhotoShop dasturining bazaviy elementi hisoblanadi. Qatlamni shaffof oynaga qiyoslash mumkin. Tasviri tasviri bir necha bo'laklarga bo'lib, har bir bo'lakni alohida yiyaga chizib, so'ng bu oynalarni birlashtirilsa tasvir butun holda hisoblanadi. Adobe PhotoShop dasturida tasvirlar kamida bitta qatlama yiyashadi. Qatlamlar soni yuqorida chegaralanmaydi. Tasvirlarni qaytarishni prinsipi asosida yaratilishi ularni tahrirlashda yengillik qoradidi.


Creative Suite				
dasturlar paketi tarkibi				
	Design Standard	Design & Web Premium	Production Premium	Master Collection
Photoshop	•			
Photoshop Extended		•	•	•
Illustrator	•	•	•	•
InDesign	•	•		
Acrobat X Pro for Creative Suite	•	•		
Flash Professional		•	•	•
Flash Builder				
Dreamweaver		•		
Fireworks		•		
Premiere Pro			•	•
After Effects			•	•
Audition			•	•
SpeedGrade			•	•
Adobe Prelude			•	•
Encore			•	•
Bridge*		•	•	•
Media Encoder*	•	•	•	•

Rasm - 1. "Creative Suite" amaliy dasturlar paketi tarkibi
Qo'shimcha modular prinsipi grafik muharrir imkoniyatini kengaytiradi. Ular tasvirlarni har xil usullar bilan qayta ishlash imkonini beradi. Hozirda juda ko'p kompaniyalar, firmalar tasvirlar ustida murakkab amallar bajarishga mo'ljallangan modular yaratish bilan

shug'ullanadi. Bu modullarni Adobe PhotoShop dasturiga qo'shish haqida qanday qiyinchilik tug'dirmaydi. Ularni dasturning maxsus papkasiga nusxa olib ko'chirilsa yetarli bo'ladi.

Bundan tashqari Adobe PhotoShop grafik muharririda asosiy e'tiborli kompyuter grafikasining texnologiyalariga qaratiladi, ya'ni unda tasvirlarni tahrir qilish usullari tasvirni imkon qadar asliga o'xshatish xizmat qiladi. Adobe PhotoShop dasturidagi mavjud vositalar yordamida osongina tasvirlarni "maskalash" (tasvir qismini berkitish), bo'yashish, tasvirni yoki uning biror qismi parametrlarini o'zgartirish uchun boshqa shu kabi amallarni bajarish mumkin.

Adobe PhotoShop dasturini ishga tushirish WINDOWS operatsion tizimida dasturlarni ishga tushirish standarti kabi amalga oshiriladi. Dastur ishga tushganda ekrannda uning oynasi paydo bo'ladi.



Rasm - 2. Foydalanuvchi interfeysi elementlari

Huynna odatda foydalanuvchi interfeysi deb ataladi. Foydalanuvchi interfeysi quyidagi elementlardan tashkil topgan:

Dastur oynasining eng yuqori satri sarlavxa satri deyiladi. Bu satr oynanishing 1-satri bo'lib, u to'q ko'k rangda. Unda dastur nomi, tasvir nomi, tasvir mashtabi va oynani boshqaruvchi uch tugmani joylashgan. Bu satrning chap burchagidagi tugmani bosish orqali boshqaruvchi "kontekstli" menu buyruqlari orqali oyna ustida amallar bajarish mumkin.

A) Menyular satri. Bu satrda grafik muharrirning barcha buyruqlari bajaradigan vazifalariga yaqin qilib guruhlarga ajratilgan va boshqaruvchi menyular ko'rinishida keltirilgan. Menyudagi ba'zi buyruqlar ororda «» ko'riniidagi belgi mavjud bo'lsa, u bu buyruqqa menu osti bog'langan ekanligini anglatadi.

B) Aktiv instrument parametrlari paneli satri. Bu satr yordamida tasvirlar yaratishda va tahrirlashda ishlataladigan instrumentlarning parametrlarini ko'rish va kerak bo'lganda o'zgartirish mumkin.

C) Instrumentlar paneli satri. Bu satr standart holatda oynanining chap qismida ustun shaklida joylashadi. Lekin uni joyini o'zgartirish mumkin. Bu ish instrumentlar paneli satrining ustki qismida joylashgan ko'rinishdagi tugmaga sichqoncha ko'rsatkichi keltirilib, uning tugmasi bositgan holda siljitim orqali bajariladi. Instrumentlar panelidagi tugmalarning o'ng quyisi qismida uchburchak shaklidagi qora elgi mavjud bo'lsa, bu tugmaga bir necha instrumentlar bog'langan bo'ladi. Ularni tanlash uchun sichqoncha ko'rsatkichi shu tugma ustiga keltirilab, sichqoncha o'ng tugmasi bositadi va bunda ochilgan paneldan kerakli instrument tanlanadi. Bu instrumentlar yordamida tasvirlar hosil qilish, ularni ajratib olish, tahrirlash, ko'chirish va hokazo amallar bajariladi.

D) Tasvir oynasi satri. Bu satr biror bir tasvir fayli tashkil etilsa oki ochilsa paydo bo'ladi. Bu oynaning atrofi, ya'ni yuqori va yon chap omoni lineyka bilan o'ralgan. O'ng qismida "Okho" menyusi yordamida ochilgan har xil oynalar joylashadi. Quyi qismida holatlar joylashgan bo'ladi.

E) **Tasvir maydoni** – bu tasvir chizish uchun ajratilgan maydon. Uning katta kichikligi tasvir fayli ochiladigan paytda ko'rsatiladi. Masalan: 300x400 kabi.

F) **Navigator oynasi** – bu tasvir oynasining kichiklashtirilgani holati bo'lib, u katta masshtabli tasvirni kerakli joyini ko'rsatish uchun xizmat qiladi.

G) **Ranglar paneli** – bu panel yordamida tasvir chizishda uning foni va chizish, bo'yash uchun rang tanlashda ishlataladi.

H) **"История" (tarix) oynasi** – tasvir ustida bajarilgan barcha amallar bu oynada tasvirlanadi. Asosan tasvir ustida bajarilgan amallarni bekor qilishda ishlataladi. Buning uchun bu oynada keltirilgan amal nomi o'chirib tashlanadi.

I) **"Слои" (qatlamlar) oynasi** – bu oyna yordamida qatlamlar ustida amallar bajariladi. Masalan, kerak bo'lmasan qatlam o'chiriladi yangi qatlam tashkil qilinadi, qatlamlarni joylashish ketma ketligi o'zgartiriladi va hokazo.

Bu PhotoShop dasturi oynasi elementlari haqida qisqacha ma'lumot. Ular haqida batafsilroq ma'lumotlarni yana amaliy darslarda beriladi.

PhotoShop dasturida har bir tashkil etiladigan fayl hujjat o'zini o'chamiga ega bo'lishi lozim. Fayl o'chami tasvirni eni va bo'yini o'chamlaridan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Masalan, shaxsiy tashrif qog'oz'i (визитная карточка) tasviri yaratiladigan bo'lsa uning standart o'chami eni 9 sm, bo'yisi 5 sm bo'ladi va shunga ko'ra fayl hujjatni o'chami eni 9 sm, buyisi 5 sm qilib olinadi.

Yangi fayl tashkil etish "Файл (File)" menyusining "Новый" (New) buyrug'i yordamida bajariladi. Bu buyruq berilganda ekranда "Новый" nomli muloqot oyna ochiladi. Bu oyna quyidagi ko'rinishda bo'lib, u quyidagi elementlardan tashkil topgan:

A. Hujjat nomi (Name-Имя) – bu yerda fayl xujjat nomini ko'rsatiladi;


B. Avvaldan o'rnatish (Preset-Предустановки) – oldindan xil grafik formatlarda saqlash mumkin. Shu bilan birga tasvir sifatini o'rnatilgan hujjat o'chamlaridan biri tanlash;

C. Hujjat o'chami (Размеры документа) – bu yerda hujjatni eni (Width) va bo'yisi (Height) o'chamlari ko'rsatiladi;

D. O'lejov birlik – tanlash yo'li bilan o'rnatiladi;

E. Bir dyumdag'i mumkin bo'lgan nuqtalar soni (Resolution-разрешение) – bu yerda hujjatni bir dyumdag'i mumkin bo'lgan nuqtalar soni o'matiladi. Bosmaga chiqariladigan tasvirlar uchun 300 yoki undan kam bo'ladi, veb sahifalar uchun yoki kompyuter ekrani uchun 72 qo'yish bo'ladi;

F. Rang rejimi (Color Mode-Световой режим) – bu yerda rang formatini ko'rsatiladi. Odatda rang modeli formatini RGB modeli o'matiladi;



RGB modeli o'rnatilishi

G. Fon (Background Contents-Содержание фона) – tasvirning foni o'rnatiladi.

Yuqoridaagi muloqot oynada keltirilgan kabi olinsa, oq fonli o'chami 800x600 piksel bo'lgan hujjat hosil qiladi.

Photoshop dasturida fayllarni diskga saqlash uchun "Fayl" (File) menyusining "Сохранить" (Save) buyrug'i beriladi. Diskga saqlashda am bosqarish mumkin.

Faylni yopish "Файл" (File) menyusining "Закрыть" (Close) buyrug'i yordamida amalga oshiriladi.

2.2. "Adobe Photoshop" grafik muharririning instrumentlar paneli bilan ishlash

ADOBE PHOTOSHOP dasturining instrumentlar paneli standarta holda dastur oynasining chap qismida joylashgan bo'lib. Unda tasvirning yaratishda va qayta ishlashda ishlatiladigan barcha instrumentlar joylashgan bo'lib, ular 4 guruhga ajratiladi. Ulardan 21 tasi ko'rinishda holda qolganlari yashirin holda beriladi. Yashiringan instrumentlar ko'rish uchun sichqoncha ko'rsatkichi ko'rinish turgan instrumentlarning ustiga keltirilib, uning o'ng tugmasini bosish kerak. Shuningdek instrumentlar panelini bir ustun yoki ikki ustun ko'rinishida tasvir qilish mumkin. Buning uchun instrumentlar panelining ustki qismida strelkani bosish kerak.

«Перемещение» instrumenti  (V) – bu 1-guruhning instrumenti bo'lib, u siljitchish instrumenti deyiladi. Uning yordamida qatlamlarni, tasvirni belgilangan qismini, konturlarni va yo'naltiruvchi chiziqlarni bir joydan ikkinchi joyga siljitchish vazifasini bajaradi. Buning uchun bu instrument ko'rsatkichi siljitchish kerak bo'lgan obyekt ustiga keltirilib sichqoncha chap tugmasi bosilgan holda harakatga keltiriladi.

Raqamli tasvirlar bilan ishlashda tez-tez tasvirning aniq qismlariga har xil filtrlar qo'llashga to'g'ri keladi. Buning uchun avval tasvirni kerakli qismini ajratib olish, keyin uni tahrirlashga o'tish lozim. ADOBE PHOTOSHOP dasturida tasvirning qismlarini ajratish uchun bir necha instrumentlar mavjud. Ular instrumentlar panelining 1-guruhning instrumentlari hisoblanib, asosan tasvirni kerakli qismini ajratib olish vazifasini bajaradi. Bu instrumentlar quyidagilardir:

1. «Прямоугольная область»  (M) – bu instrument tasvirning kerakli qismini to'g'ri to'rtburchak va kvadrat shaklda ajratib olish uchun hismat qiladi. Kvadrat shaklda ajratib olish uchun "Shift" tugmasi bilan birgalikda ishlatiladi;

2. «Овальная область»  – bu instrument tasvirning kerakli qismini ellips va aylana shaklida ajratib olish uchun hismat qiladi. Aylana shaklda ajratib olish uchun "Shift" tugmasi bilan birgalikda ishlatiladi;

3. «Область вертикальная строка» – bu instrument tasvirning qismini joyidan 1 px qalinlikdagi vertikal qismini ajratishda keltiriladi;

4. «Область горизонтальная строка» – bu instrument tasvirning qismini joyidan 1 px qalinlikdagi gorizontal qismini ajratishda keltiriladi;

Bu keltirilgan ajratish instrumentlari 4 xil rejimda ishlaydi, ya'ni:

1. «Новая выделенная область» yangi ajratish rejimi. Bu rejimda ajratish instrumenti qaytadan ishlatilganda avvalgi ajratilgan maydoni yangidan ajraladi;

2. «Добавление к выделенной области» – ajratilgan qismga qo'shish rejimi.

3. «Вычитание из выделенной области» – ajratilgan qismidan ayrib qo'shish rejimi. Bunda avvalgi ajratilgan tasvir qismidan keyingi ajratilgan qism ayrib tashlanadi.

4. «Пересечение с выделенной областью» – ajratilgan qism bilan qismidan ayrib qo'shish rejimi. Bu rejimda avval ajratilgan qism bilan keyingi ajratilgan qismning umumiy bo'lgan joyi ajraladi.

ADOBE PHOTOSHOP dasturida tasvirni ihtiyyoriy qismini ajratib olish imkonи ham mavjud. Bu quyidagi instrumentlar yordamida keltiriladi:

1. «Лассо»  (L) instrumenti – bu instrument yordamida tasvirning ihtiyyoriy qismini ajratish mumkin. Buning uchun instrument aktiv holga keltirilib, sichqoncha chap tugmasi bosilgan holda ajratilishi kerak bo'lgan qismining boshlang'ich nuqtasiga keltirilish, sichqoncha chap tugmasi bir marta bosiladi. Buning uchun instrument aktiv holatga keltiriladi va instrument ko'rsatkichi tasvirning qismini egri chizillar bilan ajratishda ishlatiladi.

2. «Прямолинейное лассо»  instrumenti – tasvirning kerakli qismini egri chizillar bilan ajratishda ishlatiladi. Buning uchun instrument aktiv holatga keltiriladi va instrument ko'rsatkichi tasvirning qismini egri chizillar bilan ajratishda ishlatilishi kerak bo'lgan qismining boshlang'ich nuqtasiga keltirilish, sichqoncha chap tugmasi bir marta bosiladi. So'ng 2-nuqtaga keltirilib 3-nuqtaga olib kelib yana bir marta va hokazo har bir nuqtaga sichqoncha chap tugmasi bosiladi. Shu tariqa yana boshlang'ich nuqtaga sichqoncha chap tugmasi bosiladi.

nuqtaga olib kelinib oxirgi marta sichqoncha chap tugmasi bosiladi. Natijada tasvirning egri chiziqli qismi ajratiladi.



3. «Магнитное лассо» instrumenti. Bu instrumentni ishlash mag-nitga o‘shaydi. Magnit temir moddasiga yopishsa bu instrument rangga yopishidi. Bu instrument ham tasvirning kerakli qismini ajratish uchun ishlataladi. Buning uchun instrument aktiv holga keltirilib, so‘z instrument ko‘rsatkichi tasvirning ajratiladigan qismi bo‘yichi sekka harakatlantirib boriladi va boshlang‘ich nuqtaga kelganda sichqoncha chap tugmasi ikki marta ketma-ket bosiladi. Natijada tasvirning kerakli qismi ajratib olinadi.

ADOBE PHOTOSHOP dasturida tasvirlarni qayta ishlashda ishlataladigan bir necha instrumentlar mavjudki, ular asosan tasvir ko‘rinish yahshilash pardozlashda ishlataladi. Shuning uchun bu instrumentlarni «Pardozlash» instrumentlari deb ataymiz. «Pardozlash» instrumentlari guruhiqa quyidagi instrumentlar kiradi:



восстанавливающая кисть



штамп



ластик

«Pardozlash» instrumentlari

Bu instrumentlarni ko‘rib chiqamiz:

1. «Восстанавливающая кисть» instrumentlari guruhi. Bu guruhgaga quyidagi instrumentlar kiradi:

- Инструмент “Точечная восстанавливающая кисть”
- Инструмент “Восстанавливающая кисть”
- Инструмент “Заплатка”
- Инструмент “Красные глаза”

“Восстанавливающая кисть” instrumentlari guruhi

